

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYASI QABUL QILINISHI

**Agzamovna Nargiza Gafurovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tarix fani o'qituvchisi

[nargizaagzamova1608@gmail.com](mailto:nargizaagzamova1608@gmail.com)

**Mo'minova Gulhayo Bunyodjon qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, turizm fakulteti, 1-bosqich talabasi

[gulhayomominova078@gmail.com](mailto:gulhayomominova078@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yilda qabul qilingan yangi tahriri va uning siyosiy-huquqiy ahamiyati keng yoritiladi. Konstitutsiyaning yangi tahriri xalqaro demokratik standartlarga mos holda mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanishiga qaratilgan keng ko'lamli o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Xususan, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirish, hokimiyatlar o'rtasidagi muvozanatni kuchaytirish va fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini oshirishga qaratilgan yangi normalar tahlil qilingan.

Maqolada, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilishga oid kafolatlar. Referendum orqali Konstitutsiyaning qabul qilinishi fuqarolarning davlat boshqaruvidagi faolligini oshirganligi va bu jarayonning milliy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilganligi haqida fikr yuritiladi.

Mazkur tahlil mamlakatning milliy rivojlanish strategiyasidagi yangi yo'nalishlarni ko'rsatib berishga va ushbu islohotlarning O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiboriga ta'sirini ochib berishga qaratilgan. Maqola davlat siyosati va konstitutsiyaviy huquq sohasidagi mutaxassislar, tadqiqotchilar va o'quvchilar uchun muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** yangi tahrir, umumxalq referendumi, inson huquqlari, demokratik islohotlar, davlat boshqaruvi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, ijtimoiy kafolatlar, iqtisodiy islohotlar, milliy rivojlanish strategiyasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, ta'lim tizimi, xalqaro standartlar, huquqiy tizim, fuqarolik jamiyati.

### Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.11.2023 yildagi PF-188-sonli farmoniga ko'ra yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi orqali Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslari yaratilib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Shu munosabat bilan amaldagi qonunosti hujjatlarni yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqlashtirish talab etilmoqda.

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yilda qabul qilingan yangi tahriri va uning siyosiy-huquqiy ahamiyati**

2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri umumxalq referendumida asosida qabul qilinib, mamlakatning siyosiy-huquqiy tizimida muhim burilish yasadi. Yangi tahrir davlatni demokratik rivojlanish yo‘lida yana bir qadam oldinga siljitish, fuqarolar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish va jamiyatni adolatli boshqaruv tamoyillari asosida qayta tashkil etishga xizmat qilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirish, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va jamiyatni modernizatsiya qilish maqsadlariga xizmat qiladi. Ushbu o‘zgarishlar O‘zbekistonni xalqaro maydonda yanada raqobatbardosh davlat sifatida namoyon qilishda muhim omil hisoblanadi. Yangi tahrir mamlakatning huquqiy tizimini zamonaviy talablarga moslashtirgan holda, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi.

**Xalqaro demokratik standart va inson huquqlari**

Xalqaro demokratik standartlar — bu demokratiyaning asosiy tamoyillari, huquqiy tartibot va boshqaruv amaliyotlariga qo‘yiladigan umumiy talablar bo‘lib, ular milliy davlatlarning huquqiy tizimlarida xalqaro me‘yorlarga muvofiq qo‘llaniladi. Xalqaro demokratik standartlarning asosiy tamoyillaridan biri inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishlikdir. Bunga ko‘ra yangi tahrirdagi konstitutsiyaga muvofiq, inson huquqlari inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi. Inson huquqlaridan amalda foydalanish har bir shaxsning o‘z hayotini erkin qurishi va o‘z taqdirini o‘zi belgilashi, tenglik va inson qadr-qimmatini hurmat qilishga ko‘maklashadi. Inson huquqlari fuqarolik va siyosiy huquqlar, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar, shuningdek, jamoaviy huquqlar majmuidir.

**Davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirish**

Davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirish — bu davlat hokimiyatining shaffofligi, hisobdorligi va fuqarolar ishtirokini oshirishga qaratilgan o‘zgarishlar jarayoni bo‘lib, asosiy maqsad jamiyatda adolat, tenglik va qonun ustuvorligini ta‘minlashdan iborat. Ushbu jarayon davlat hokimiyati organlarining faoliyatini modernizatsiya qilish va boshqaruv tizimini xalqaro demokratik standartlarga moslashtirishni talab etadi. Yangi O‘zbekiston — demokratik va huquqiy davlat

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 7-moddasi uchinchi bandida: «Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o‘zlashtirish, hokimiyat organlari faoliyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi», deb belgilangan.

Bu normalar Yangi O‘zbekiston demokratik huquqiy davlat hisoblanib, mamlakatda hokimiyat almashishi faqat Konstitutsiya va qonunlar asosida ta‘minlanadi, degan tamoyil hayotga tatbiq etilishining kafolatidir. Davlatning huquqiy siyosati insonparvarlik, demokratiya, ijtimoiy adolat va siyosiy xilma-xillik prinsiplariga asoslanadi.

Yangi O‘zbekistonda xalqimizning boy tajribasi va madaniy an‘analariga asoslangan demokratiya o‘rnatilmoqda, bunda aholining turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlari manfaatlarini hisobga olinadi. Zo‘ravonlikka asoslangan eskicha ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi qoldiqlari nihoyat barham topdi, ko‘ppartiyaviylik, g‘oya va fikrlar xilma-xilligi odatiy holga aylanib bormoqda

O'zbekiston misolida davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirish:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yilda qabul qilingan yangi tahririda davlat boshqaruvini demokratlashtirishga qaratilgan bir qator islohotlar aks ettirilgan. Xususan:

- Prezidentlik muddatining 5 yilgacha qisqartirilishi va ijroiya hokimiyat vakolatlarining optimallashtirilishi;
- Parlament va mahalliy kengashlarning vakolatlarini oshirish orqali qonun chiqaruvchi hokimiyatning rolini kuchaytirish;
- Fuqarolarning davlat qarorlarini qabul qilish jarayonida faol ishtirokini ta'minlash;
- Hokimiyatning barcha tarmoqlari o'rtasida kuchli nazorat va muvozanat mexanizmlarini joriy etish.

O'zbekiston Konstitutsiyasida atrof-muhitni himoya qilishga oid kafolatlar:

## 1. **Ekologik xavfsizlikni ta'minlash:**

2023-yilgi O'zbekiston Konstitutsiyasida ekologik xavfsizlik davlatning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Bu, davlatning ekologik muammolarga qarshi kurashish, tabiiy resurslarni saqlash va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha majburiyatlarini anglatadi.

## 2. **Tabiatni asrash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish:**

Konstitutsiyada atrof-muhitni asrash va tabiiy resurslardan barqaror foydalanishning davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida tasdiqlanishi ekologik muhofazaga bo'lgan yondashuvni mustahkamlaydi. Bu tamoyilni amalga oshirish uchun davlatning barcha organlari va fuqarolar hamkorlikda ishlashi zarur.

## 3. **Barqaror rivojlanish:**

Atrof-muhitni himoya qilish barqaror rivojlanish tamoyilini amalga oshirishda alohida o'rin tutadi. Konstitutsiyada barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun atrof-muhitni saqlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish kafolatlanadi.

## 4. **Inson huquqlari bilan bog'liq ekologik kafolatlar:**

O'zbekiston Konstitutsiyasida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, insonlarning toza havo, suv, ozuqa va boshqa tabiiy resurslarga bo'lgan huquqlarini himoya qilish kafolatlangan. Bu, odamlarning sog'lom muhitda yashash huquqini ta'minlashga xizmat qiladi.

## 5. **Mahalliy aholini ekologik muhofaza qilishga jalb qilish:**

Atrof-muhitni himoya qilishda fuqarolarning ishtirokini ta'minlash, ayniqsa, mahalliy aholini tabiatni saqlashga jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiyada bu jarayonlarni qo'llab-quvvatlash va fuqarolarni ekologik ta'lim olishga rag'batlantirish borasidagi mas'uliyat belgilangan.

## 6. **Tabiiy ofatlar va ekologik inqirozlarga qarshi chora-tadbirlar:**

Atrof-muhitni muhofaza qilishning bir qismi sifatida, tabiiy ofatlar va ekologik inqirozlarga qarshi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish kafolatlangan. O'zbekistonning ekologik siyosatida Orol dengizi va uning atrofidagi hududlarni tiklash bo'yicha maxsus strategiyalar ishlab chiqish va amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

## 7. **Tashqi ekologik masalalarga nisbatan siyosat:**

O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasida tashqi ekologik masalalarda ham qat'iy siyosat yuritish belgilangan. Davlat xalqaro ekologik shartnomalar va bitimlarga qatnashib, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi global tashabbuslarda faol ishtirok etishi kerak.

Ekologik huquq va javobgarlik:

Konstitutsiyada ekotizimni himoya qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha qat'iy talablar qo'yilishi bilan birga, atrof-muhitga zarar yetkazgan shaxslar yoki tashkilotlar uchun javobgarlikni

belgilash bo'yicha ham yangi normalar ishlab chiqilgan. Ekologik huquqni buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, ekologik jinoyatlarni oldini olish va atrof-muhitni muhofaza qilishga bo'lgan qat'iy yondashuvni ta'minlashning samarali mexanizmlari yaratilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahriri atrof-muhitni himoya qilishga oid kuchli huquqiy kafolatlar yaratdi. Bu kafolatlar ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiatni asrash va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash borasidagi davlatning majburiyatlarini yanada mustahkamladi. Ekologik muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega, bu jarayon jamiyatning yashash sharoitlarini yaxshilash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

## **Referendum orqali Konstitutsiyaning qabul qilinishi va fuqarolarning faolligini qiyidagi tamoyillarga bo'lib chiqqan hollarda izohlaymiz**

Birinchidan, fuqarolarni siyosiy jarayonlarga jalb qilish, 2023-yilgi referendumda fuqarolarning keng ishtirok etishi, ularning O'zbekiston Konstitutsiyasidagi o'zgarishlar va yangilanishlarga bo'lgan munosabatlarini bildirishga imkon yaratdi. Referendum jarayonida ovoz berish nafaqat konstitutsiyaviy islohotlarga qo'llab-quvvatlashni, balki fuqarolarning siyosiy hayotdagi ishtirokini faollashtirishni ham anglatadi. Ovoz berish jarayoni har bir fuqaroga o'z fikrini bildirish va o'z mamlakatining kelajagi uchun muhim qaror qabul qilishda ishtirok etish imkonini berdi.

Ikkinchidan, fuqarolik mas'uliyati va demokratiya referendum orqali yangi tahrir qabul qilinishi, fuqarolarning nafaqat siyosiy, balki fuqarolik mas'uliyatini oshirdi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, birinchi navbatda, fuqarolarni siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga faol jalb qilishni nazarda tutadi. Fuqarolar o'z kelajagi uchun mas'uliyatni his qilishadi va bu demokratik jamiyatda o'zgarishlarning zarurligini anglashadi. Shuningdek, referendum demokratik qadriyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi, chunki u fuqarolarni jamiyatdagi jarayonlarga faol qo'shilish uchun imkoniyat yaratadi.

Uchinchidan, milliy birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan referendum jarayoni mamlakatda milliy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qildi. O'zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahriri orqali davlatning asosiy tamoyillari, qonunlar, va fuqarolarning huquqlari yanada aniq belgilandi. Bu o'zgarishlar mamlakatni mustahkamlash va fuqarolar o'rtasida hamjihatlikni oshirishga xizmat qiladi. Referendum orqali O'zbekiston xalqining o'zining kelajagi va rivojlanish yo'lini belgilashga bo'lgan qat'iy pozitsiyasi ifodalandi, bu esa milliy birdamlikni mustahkamlashga, turli etnik va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Referendum orqali Konstitutsiyaning qabul qilinishi O'zbekiston fuqarolarining davlat boshqaruvidagi faolligini oshirdi. Bu jarayon fuqarolarni siyosiy jarayonlarga keng jalb etib, milliy birdamlikni mustahkamladi. Konstitutsiyaning yangi tahriri nafaqat huquqiy va siyosiy islohotlarni, balki fuqarolarning jamiyatdagi o'rni va mas'uliyatini kuchaytirishga yordam berdi. Referendum O'zbekiston xalqining o'z mamlakatining rivojlanishida faol qatnashish huquqini yana bir bor mustahkamladi va demokratik jarayonlarning mustahkam poydevorini yaratdi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.11.2023 yildagi PF-188-son

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. <https://constitution.uz/>
4. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'quv qo'llanmasi